




INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI XALQARO VA MILLIY NORMALAR UYG'UNLIGI

Abduxafizov Sardor Nematjonovich

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820828>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 12-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 15-mart 2024 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Huquqiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri – bu inson huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslangan milliy qonunchilikni takomillashtirishdir. Huquqiy davlatchilik yo'lida O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati suverenitetini mustahkamlash va huquq ustunligini tasdiqlanishi huquqiy davlatchilikning chambarchas o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Inson huquqlari - har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat'i nazar, ajralmas huquqlaridir.

Barcha odamlar har qanday turdagi kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir xilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Insonning umumbashariy huquqlari ko'pincha shartnomalar, xalqaro odat huquqi, huquqning umumiy prinsiplari va xalqaro huquqning boshqa manbalarida qonun ko'rinishida mustahkamlangan va kafolatlangan. Inson huquqlari xalqaro huquqiy davlatlarga inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rivojlantirish hamda himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni yuklaydi. Demokratik davlatda mutlaq inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.¹

Inson huquqlari ta'minotining milliy mexanizmi quyidagi turlardan iborat:

- iqtisodiy kafolatlar;
- ijtimoiy kafolatlar;
- mafkuraviy kafolatlar;
- siyosiy kafolatlar;
- huquqiy kafolatlar;
- moddiy kafolatlar;

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

Huquqiy kafolatlar — fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir. Ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Kafolatlar— fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalgam oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir".

Shaxsiy huquq va erkinliklar tartibi 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyasida yashash huquqi bilan boshlanadi. Bu asosiy, insonning tabiiy huquqi, uning xavfsizligi kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, davlat tomonidan inson hayoti uchun ijobiy muhitni yaratish va shaxs sha'nini himoyalash majburiyatini ko'rsatadi. Konstitutsiyaga bunday tarbiyaviy-ahloqiy omillarning kiritilishi amaliy ma'noga ega, ya'ni shaxs g'oyasini jamiyatning eng yuqori qadriyati sifatida e'tirof etadi. 2008-yili o'lim jazosining bekor qilinishi, inson huquqlarining xalqaro standartlari, davlat qonunchiligida va amaliyotida qo'llanilayotganligining yaqqol tasdig'idir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi: "**Biz fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, O'zbekistonda so'z erkinligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni qat'iy maqsad qilganmiz. Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish** doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan **qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'ymaymiz**".²

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, inson huquqlari barcha mamlakatlarda ham ya'niy dunyo hamjamiyatida to'la-to'kis ta'minlanmagan. Balki, inson va davlat huquqlari juda ham yuqori darajada buzilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Buni biz Isroil va Falastin misolida ham ko'rishimiz mumkin...

Isroil va Falastin tarixi

Bugun Isroil-Falastin mojarosi dunyo hamjamiyati diqqat markazida bo'lib turibdi. Ammo ko'pchilik mojaroning sababi, kelib chiqish tarixi va uning atrofidagi o'yinlardan bexabar holda u yoki bu tomonni qoralayapti. Falastin va Isroil o'rtasidagi mojaro bugun yoki kecha vujudga kelib qolgani yo'q. Ushbu mojaro asrlar mobaynida davom etib kelmoqda. Tarixga nazar soladigan bo'lsak XX asr boshlariga qadar Falastin Usmonli imperiyasining bir qismi bo'lgan, o'sha davrda Falastin hududida arablar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa-da, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bir-birlari bilan yonma-yon, tinch-totuv yashab kelishgan.

Yahudiylarning davlat tuzish orzusi Ikkinchi jahon urishidan keyin amalga oshdi. Isroil davlatini tuzishda bosh-qosh bo'lgan BMT 1947 yil 14 mayda Falastin hududidini ikkiga arab-Falastini va yahudiy-Isroiliga bo'lib yubordi. Uchala din e'tiqodchilariga muqaddas hisoblangan Quddus shahri xalqaro neytral zonaga aylantirildi va ushbu shahar BMT nazoratiga o'tdi. Falastin hududida Isroil davlatining vujudga kelishi barcha arab mamlakatlarining xavotiriga va noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada arablar va yahudiylar o'rtasida hududiy muammolar boshlandi.

Isroilni o'rab turgan bir qancha arab mamlakatlarining qarshiligiga va BMT Xavfsizlik Kengashining bir necha marotaba ogohlantirishiga qaramay AQSHning zamonaviy qurollari

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi (president.uz)

bilan qurollangan Isroil to'qnashuvlarni to'xtatish o'rniga, doimiy ravishda Falastinning arablarga tegishli qismi, Suriya, Iordaniya, Livan, qolaversa, Misr hududi hisobiga o'z maydonini kengaytirib bordi. Bugungi kunda Falastin hududining 78 foiz maydoni Isroil tomonidan egallandi. Ushbu hududlardan arablar ayovsiz quvildi. Qonli to'qnashuv natijasida 400 ga yaqin tarixiy shaharlar yo'q qilindi. Qanchadan-qancha tinch aholi qurbon bo'ldi. Hozirgi kunda aksariyat falastinlik qochqinlar va ularning avlodlari G'azo sektori, Iordan daryosining G'arbiy qirg'og'i, shuningdek, qo'shni Iordaniya, Suriya va Livanda yashab kelmoqda.

Isroil va Falastin mojarosining keskinlashishi

2023-yilning 7-may kuni – Ramazon oyining oxirgi Juma kuni, Quddusdagi Al-Aqso masjidi atrofida tartibsizliklar boshlandi. Bunga Isroil politsiyasi tomonidan falastinlik arablar taroveh namozini o'qiyotgan ushbu masjidga hujum qilangani sabab bo'ldi. Shundan so'ng, G'azoni nazorat qiluvchi falastinliklarning HAMAS harakati Isroilni ogohlantirdi. Sharqiy Quddusdagi Al-Aqso masjidi va Shayx Jarroh mahallasidan askarlarni olib chiqib ketish uchun mahalliy vaqt bilan soat 18:00 gacha muddat qo'ydi. Shart bajarilmagach, 10-may kuni ushbu harakat Isroilning bir qator shaharlarini 45 ta raketa bilan o'qqa tutdi. Biroq Isroilning havo hujumiga qarshi "Temir gumbaz" mudofaa tizimi ushbu 45 raketaning katta qismini osmonning o'zida zararsizlantirdi. Ba'zilari esa aholi yashash punktiga tushdi. Vaqt o'tishi va ikki o'rtadagi ziddiyat ortib borishi bilan bu ssenariy ko'p marta takrorlandi. HAMAS raketa uchiraverdi, Isroil uning katta qismini zararsizlantirib, qarshi hujum bilan javob qaytaraverdi. Isroil sudining birgina qarori va masjidga qilingan hujum shunday shiddatli harbiy harakatlarni keltirib chiqardi va buning oqibatida minglab voyaga yetmagan bolalar, tinch aholi va ayollar halok bo'ldi. Shuningdek, bu mojaro hali havom davom etib kelmoqda...

Xalqaro davlatlar munosabati

Ta'kidlash joizki, xalqaro munosabatlarning ba'zi ishtirokchilari ushbu masalada faqat til uchida munosabat bildirgan bo'lsa, boshqalari Isroilni hatto terrorda aybladi.

Ayniqsa, Turkiya Prezidenti Rajab Toyib Erdo'g'an ushbu masalada faol: bir qator islomiy davlatlar rahbarlari bilan Isroilning xatti-harakatlarini muhokama qildi, Armanistonga qarshi urushda Turkiya Ozarbayjonni qanday qo'llagan bo'lsa, Isroilga qarshi kurashda Falastinni ham shunday qo'llashini ma'lum qildi.

Keyinchalik, Eron Prezidenti Hasan Ruhoniy Isroilning Sharqiy Quddus va G'azodagi so'nggi hujumlariga munosabat bildirib, Misr va Iordaniyaning harakatsizligini tanqid qildi. U Isroil hukumatini "qonxo'r sionist" deb atadi. Shuningdek, Eron HAMAS tashkilotini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va'da berdi.

Isroilning "tutingan akasi" AQSH esa har ikki tomonni ham vaziyatda aybdor deb, mojaroni tugatishga chaqirdi. Yevropa Ittifoqi e'tiborini falastinliklarning noqonuniy ko'chirilishiga qaratdi. Xitoy esa bu vaziyatda Falastinning yonidan joy olishini e'lon qildi.

Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston Al-Aqso masjidi atrofidagi vaziyatni hurmat qilishga, O'zbekiston esa ushbu masjid daxlsizligini ta'minlashga chaqirdi.

O'zbekiston munosabati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev fuqarolarga, ayniqsa, yoshlarga murojaat qilib, Isroil-Falastin masalasida turli yolg'on tashviqotlarga berilmaslikka, qonunga zid xatti-harakatlar sodir etmaslikka chaqirdi va ta'kidladi: "Aynan shuning uchun ham biz har ikki tomonni zudlik bilan gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga, jangovar harakatlarni to'xtatib, nizoni tinchlik yo'li bilan hal etishga chaqiramiz, zo'ravonlik yanada avj olaversa, bu xalqaro vaziyatning keng miqyosda izdan chiqishiga, qurolli to'qnashuvlarga yangi kuchlar tortilishiga olib keladi. Bularning barchasi Yaqin Sharq mintaqasi bilan cheklanmay, uzoq o'lkalarga ham tarqalib ketadigan, oqibatini bashorat qilib bo'lmaydigan fojialarga olib kelishi mumkin".³

Shuningdek Sh.Mirziyoyev: "Biz Falastin xalqi bilan birdam ekanimizni qat'iy bildiramiz va uning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi va Xavfsizlik kengashining ilgari qabul qilingan rezolyutsiyalariga muvofiq o'z mustaqil davlatini barpo etishga bo'lgan huquqini qo'llab-quvvatlaymiz", — deb fikr bildirdi va G'azo sektori aholisiga yordam ko'rsatish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratish haqida qaror qabul qilganini ta'kidladi.⁴

Insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko'tarilgan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'zining moddiy ifodasini topgan:

- Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya(1989-yil);
- Qiynoq hamda muomala va jazolshning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt (1966-yil);
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning fakultativ protokoli (1966-yil);
- Yevropa Kengashi Inson huquqi va erkinliklarining himoyasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-yil);

BMT Ustavida, Xalqaro huquq prinsiplari deklaratsiyasi va EXHKning yakuniy aktida 10 ta asosiy prinsiplar qayd etilgan:

- 1) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
- 2) Ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish;
- 3) Aralashmaslik;
- 4) Xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zlari belgilashi;

³ <https://qalampir.uz/uz/news/shavkat-mirziyoyev-isroil-falastin-masalasida-uzbekistonliklarga-murozhaat-kildi-92308>

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/31/palestine/>

- 5) Hamkorlik;
- 6) Davlatlarning suveren tengligi;
- 7) Xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish;
- 8) CHegaralarning daxlsizligi;
- 9) Hududiy yaxlitlik;
- 10) Inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplari;⁵

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida quyidagi umume'tirof etilgan inson huquqlarining to'liq ro'yxati keltirib o'tilgan:

Shaxsiy huquq va erkinliklar:

- yashashga bo'lgan huquq, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi(3-modda);
 - qullikning ta'qiqlanish huquqi(4-modda);
 - qiynoqlarning ta'qiqlanishi, inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki noinsoniy muomalalar va jazolashlarning ta'qiqlanish huquqi(5-modda);
 - har bir insonning huquqiy subyekt bo'la olishining tan olinish huquqi(6-modda);
 - asosiy huquqlarini buzilishi sabab bo'lgan harakatlarga qarshi sud himoyasiga bo'lgan huquqi(7-modda);
 - huquqlarni sud tomonidan samarali tiklanishiga bo'lgan huquqi(8-modda);
 - o'zboshimchalik bilan qamoqqa olish, ushlab turish yoki surgun qilishdan himoya qilishga bo'lgan kafolat huquqi (9-modda);
 - mustaqil va betaraf sudga bo'lgan huquqi(10-modda);
 - aybsizlik prezumpsiyasi, qonunning orqaga qaytish kuchining yo'qligi(11-modda)
- Insonning uni o'rab turgan guruhi va tashqi dunyo bilan bo'gan munosabatlari doirasidagi huquqlari:
- shaxsiy hayotga bo'lgan huquqi(12-modda);
 - erkin ko'chib yurishga va yashash joyini erkin tanlashga bo'lgan huquqi(13-modda);
 - boshpanaga bo'lgan huquqi(14-modda);
 - fuqarolikka bo'lgan huquqi(15-modda);
 - nikoh munosabatlarida erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishiga bo'lgan huquqi(16-modda);
 - mulkka individual va o'zaro egalik qilish huquqi(17-modda). ⁶

⁵ <https://abiturtest.uz/mavzular/bmt-ustavida-va-xalqaro-huquq-prinsiplari-boyicha-deklaratsiyada-7-ta-asosiy-prinsip-qayd-etilgan/>

⁶ Jayawic Kagata. N.Hong Kong and the internatihnal prhtectihn hf human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992.P.160.

Aynan manashu yuqorida keltirib o'tilgan xalqaro huquqiy normalarning buzilishi (inson va davlat huquqlari tobtalishi)ni oldini olish maqsadida quyida muammoning yechimlari keltirib o'tilgan:

1. BMT Ustavida, Xalqaro huquq prinsiplari deklaratsiyasi va EXHKning yakuniy aktidagi:

1) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;

2) Ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish;

3) Xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zlari belgilashi;

4) Davlatlarning suveren tengligi;

5) Inson huquqlarini hurmat qilish kabi 5 ta asosiy prinsiplarga tayangan holda ikki davlat tinchligi va inson huquqlari yuqori darajada ta'minlanishi yo'lida keyingi harakatlarni amalga oshirish ;

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida umume'tirof etilgan inson huquqlari normalarini hurmat qilgan holda , ularning to'liq ta'minlanishi yo'lida ishlarni amalga oshirish;

3. Bir ovozda dunyodagi barcha davlatlar Falastinni suveren davlat sifatida tan olishi shuningdek, har ikkala davlatning suveren huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlarida hududiy yaxlitligini ta'minlashida, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarishida, chegaralarning daxlsizligi ta'minlashida , xalqaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy aloqalarni o'rnatishlarida moddiy va amaliy yordam berishlari va qo'llab quvvatlashlari;

Xulosa

Insonning sha'ni, qadr-qimmat, uning erkinligi insonni o'zi kabi davlat uchun ahamiyatlidir. Har qanday qonun va qarorlar fuqarolar manfaati ularning ertasi va kelajagini belgilaydi. Hozirgi yuksalayotgan va tobora ravnaq topayotgan davlatlarda inson qadri uning erkinligi va huquqiga bo'lgan etibor jahon xalqlari orasida ham bamisoli oyna kabi qilayotgan ishlarida eng buyuk maqsadlari sari bosayotgan qadamlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarni haq huquqlarini, sha'ni va qadr-qimmatlarini ulug'lash uni himoya qilish bugungi kun maqsadi va haqiqatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi (president.uz)

3. <https://qalampir.uz/uz/news/shavkat-mirziyeev-isroil-falastin-masalasida-uzbekistonliklarga-murozhaat-kildi-92308>

4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/31/palestine/>

5. <https://abiturtest.uz/mavzular/bmt-ustavida-va-xalqaro-huquq-prinsiplari-boyicha-deklaratsiyada-7-ta-asosiy-prinsip-qayd-etilgan/>

6. Jayawic Kagata. N.Hong Kong and the internatihnal prhtectihn hf human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992.P.160.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. AS A CONTINUOUS PROCESS IN FORMING AND DEVELOPING THE PROFESSIONAL CONSCIOUSNESS OF MILITARY SERVANTS //PEDAGOGS journal. – 2023. – T. 36. – №. 1. – С. 32-34.
2. Muratovich M. R. Rajaboevich IA HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 36. – №. 1. – С. 32-34.
3. Махмудов Р. М., Хайдаров И. О. АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИНГ ШАХСГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 30-33.
4. Махмудов Р. М. ҚУРОЛЛИ КУЧЛАР ТИЗИМИДА МУРАББИЙ-ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ АЁЛЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДАГИ МЕТОДИК ИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСЛИГИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 119-122.
5. МАХМУДОВ Р. М., ЎҒЛИ Э. А. А. ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ БЎЛИБ ШАКЛЛАНИШИГА КАСБИЙ БУЗИЛИШНИНГ САЛБИЙ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 13. – №. 1. – С. 18-24.
6. Махмудов Р. М., Ибрахимов А. Р. ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ ВА ОФИЦЕРЛАРНИ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 143-146.
7. Muratovich M. R. et al. PEDAGOGS jurnali.–2022 //Т. – Т. 10. – №. 1. – С. 216-225.
8. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 895-899.
9. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.
10. Narkulova I. R. Verbs of perception in Russian and the ways of their teaching to cadets of higher military educational institutions //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
11. кизи Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.
12. кизи Наркулова И. Р. и др. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
13. Наркулова И. Р. Развитие проектной компетентности курсантов высших военных образовательных учреждений //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 7.

14. Наркулова И. Р. К. ОБУЧАЮЩАЯ ПРОГРАММА «РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ ВОЕННЫХ ЮРИСТОВ» КАК ОДИН ИЗ КОМПОНЕНТОВ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 225-233.
15. Abdurashidovich M. K., Kizi Y. I. R. Developing self-study competence of pedagogies in English languages by computer technologies //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 11 (46). – С. 45-48.
16. Ёкубова И. Р. Роль синтаксической сочетаемости глаголов восприятия при изучении русского языка в высших военных учебных учреждениях //International scientific review. – 2019. – №. LXIV. – С. 77-81.
17. Ёкубова И. Р. Способы выражения объекта в высказываниях с глаголами восприятия в современном русском языке //ЛВС. – 2019. – Т. 72. – С. 307.
18. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences. – Т. 8. – С. 7-9.
19. кизи Наркулова И. Р. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРИИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ СИ ОЖЕГОВА) //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-9.
20. Астанов Ш. Ш. РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СТРАН СНГ //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР. – С. 136.
21. Наркулов , А. К. у. (2023). ЗНАЧИМОСТЬ ПАТРУЛИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА. Innovative Development in Educational Activities, 2(20), 239–243. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1763>
22. Narkulov A. ПРЕИМУЩЕСТВА ИНТЕГРАЦИИ ПРОТОКОЛОВ ДЕЙСТВИЙ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РУЗ В СОВРЕМЕННУЮ ВОЕННУЮ ПРАКТИКУ //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 1 Part 2. – С. 57-63.